

## O‘ZBEK TILI ETNOTOPONIMLARINING SOTSIOLINGVISTIK TAHLILI

*Sativoldiyeva Dildora Sadridin qizi,*

NamDPI o‘qituvchisi, Filologiya

fanlari bo‘yicha falsafa doktori

**Annotatsiya.** Maqolada millat, xalq, urug‘, qabila, elat nomlari (etnonim)lardan transonimizatsiya asosida toponimlar hosil bo‘lishi – etnonimlarning toponimlashuvi, jumladan, Namangan viloyati etnotoponimlari va ularning yuzaga kelish omillari, turlari, ijtimoiy, semantik-funksional ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** *atoqli ot, onomastik birlik, atoqli otlar yasalishi, konversiya usuli, leksik-semantik usul, onomastik konversiya, transonimizatsiya, toponim, etnonim, toponimlashuv, etnotoponim.*

**Аннотация.** В статье рассмотрено создание топонимов на основе трансонимизации названий наций, народов, родов, племен, народов (этнонимов) – топонимизация этнонимов, в том числе этнотопонимов Наманганской области и факторов их возникновения, типов, социальных, семантико-функциональных значение.

**Ключевые слова:** *имя существительное, ономастическая единица, образование имени существительного, способ преобразования, лексико-семантический прием, ономастическое преобразование, трансонимизация, топоним, этноним, топонимизация, этнотопоним.*

**Annotation.** The article describes the creation of toponyms based on the transonymization of the names of nations, peoples, clans, tribes, peoples (ethnonyms) – toponymization of ethnonyms, including the ethnotoponyms of Namangan region and their occurrence factors, types, social, semantic-functional significance.

**Key words:** *noun, onomastic unit, formation of nouns, conversion method, lexical-semantic method, onomastic conversion, transonymization, toponym, ethnonym, toponymization, ethnotoponym.*

Atoqli va turdosh otlar o‘zaro ma’nosi, vazifasi bilangina emas, boshqa xususiyatlari bilan ham farqlanadi. Ana shunday farqli lisoniy belgi-xususiyatlardan biri turdosh otlarning o‘z lisoniy materialiga egaligi, atoqli otlarning esa mana shunday materialga ega emasligidir. Bu farqli lisoniy belgi ko‘pgina onomastikaga doir ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanadi. T.A.Serebrennikov: “Toponim va antroponimlar hamisha til bazasida yaratiladi. Ularni hosil qilishda

tilning kundalik turmushda ko‘p qo‘llanuvchi modellaridan, qo‘shma so‘zlar, so‘z birikmalaridan va hatto butun bir gaplardan foydalaniladi”, – deb yozadi [1, 36].

V.A.Nikonov esa buni yanada yorqinroq ta’kidlaydi: “Toponimika o‘zining shaxsiy vositalarini ijod qilmaydi, balki oz darajada bo‘lsa-da, tildagi mavjud imkoniyatlardan foydalanadi” [2, 66].

Yuqoridagi fikrlardan atoqli otlarga doir quyidagi xususiyatlar anglashiladi:

1. Atoqli otlar o‘z mustaqil lisoniy materialiga ega emas.
2. Atoqli otlar tilda mavjud bo‘lgan lisoniy materialdan yasaladi.
3. Atoqli otlarni yasashda til materialining ma’lum qismidagina foydalaniladi.

Shu jihatdan atoqli otlar, jumladan, toponimlar, antroponimlar va boshqa onomastik birliklar apellyativ leksika hamda tilda mavjud birliklar, vositalar negizida, oddiy so‘z yasash usullari asosida yasaladi. Tildagi so‘z yasash usullaridan biri konversiyadir.

*Konversiya* termini lingvistik terminlar lug‘atida quyidagicha izohlanadi: «Konversiya (lot. conversion – aylanish, o‘zgarish). Biror turkum leksemasini boshqa turkumga xos forma yasash paradigmasiga o‘tkazish yo‘li bilan yangi so‘z hosil qilish» [3, 45]. *Konversiya* ayrim ilmiy tadqiqotlarda so‘zlarning turkumdan turkumga o‘tishi deb talqin etiladi. Konversiya termini bilan ifodalangan tushuncha tilshunoslikda *so‘z yasalishining morfologik-sintaktik usuli* (V.V.Vinogradov), **transpozitsiya** (Sh.Balli, H.Ne‘matov, O.Kim), **implitst so‘z yasash** (V.Fleyner), **transilatsiya** (L.Tener), **nol morfemali derivatsiya** (G.Morchand), **noxususiy (nesobstvennaya) derivatsiya** (N.A.Arutyunova), **transformatsiya** (V.G.Migrin) terminlari bilan turli xil nomlanadi [4, 11].

Ko‘p ilmiy manbalarda *konversiya* va *transpozitsiya* aynan bir hodisa deb qaraladi. Jumladan, ye.S.Kubryakova konversiyani transpozitsiyaning bir turi deb qaraydi. Uning fikricha, so‘z yasalish xususiyatidagi morfologik transpozitsiya *konversiya* hisoblanadi.

Toponimlar hosil bo‘lishida **konversiya usuli** faol qo‘llanadi. Bu mohiyatan so‘z yasashning *leksik-semantik usuliga* to‘g‘ri keladi. Tildagi ana shu oddiy konversiyadan onomastik konversiyani farqlash lozim. Apellyativlardan atoqli otlar – onomastik birliklar hosil qilish usuli onomastik konversiya deb ataladi. Onomastik konversiya usuliga ko‘ra apellyativ hech qanday grammatik o‘zgarishsiz atoqli otga aylanadi. Masalan, *Kanda* (And. V. Izboskan t.), *Ozod* (And v. Bo‘z t.), *Pillakash* (And. v. And. t.), *Saxovat* (And. v. Shahrixon t.), *To‘rg‘ay* (Far. v. Furqat t.), *Zanjir* (zakan – And. v. Asaka t.) kabi.

**Onomastik konversiya** termini birinchi marta A.V.Superanskaya tomonidan taklif etilgan [5,92-93]. Olimning izohlashicha, onomastik konversiya tildagi mavjud leksemalarning hech qanday o‘zgarishsiz yoki sezilarsiz holdagi o‘zgarishlar bilan atoqli ot vazifasiga ko‘chishidir [5, 93].

T.A.G‘anievning fikricha, konversiya biror lug‘aviy asosni so‘z hosil qilishning boshqa paradigmasiga o‘tkazib yangi so‘z yasashdir [6,6]. Ilmiy manbalarda onomastik konversiyaning bir turi sifatida **toponimik konversiya** ham qayd etiladi. Toponimik konversiya **toponimizatsiya // toponimlashuv** deb ham yuritiladi [7,41]. Bunda oddiy so‘zlardan joy nomlari – toponimlar hosil qilinadi.

Atoqli otdan atoqli ot hosil bo‘lishi ham onomastik terminologiyaga oid lug‘atlarda **konversiya** va **transonimizatsiya** deb ko‘rsatiladi [8,151-152]. Bunda antroponim, etnonim va boshqa onomastik birliklardan hamda toponimning bir turidan boshqa turi hosil bo‘ladi. Bunda bir atoqli otdan boshqa yana bir atoqli ot hosil qilinadi. Demak, ikki xil til hodisasiga nisbatan bir xil termin qo‘llanadi. Oddiy so‘zlardan, ya’ni apellyativlardan hech qanday o‘zgarishsiz atoqli otlar: toponimlar, jumladan, gidronimlar, antroponimlar, zoonimlar, fitoonimlar hosil bo‘lishiga nisbatan konversiya, bir atoqli otdan boshqa atoqli ot, ya’ni antroponimdan toponim, oykonimdan gidronim hosil bo‘lishiga nisbatan transonimizatsiya terminini qo‘llash maqsadga muvofiq. Demak, transonimizatsiya – biror tip atoqli otning boshqa tip atoqli otga o‘tishi.

O‘zbek tili toponimiyasida transonimizatsiya asosida etnonimlardan toponimlar hosil qilish faol kuzatiladi.

To‘p, to‘par, shox, jamoa, toifa avlod, qavm, urug‘, qabila, elat, xalq, millat nomlari etnonimlar deyiladi. Etnonim (yu. etnos – etnos – “xalq” va onim – onim – “nom”)lar majmui etnonimiya deyiladi. O‘zbek tili etnonimiyasi boy: *arbag‘ish, bag‘ish, baymoq, ko‘shan, nayman, saroy, cho‘ngbag‘ish, elaton, yashiq, qayqi, qo‘g‘ay, qo‘ng‘irot, mo‘g‘ol* kabi.

O‘zbek xalqi ham boshqa turkiy xalqlar singari ma‘lum urug‘ va qabilalardan tarkib topgan. Urug‘lar o‘zaro bir-biriga munosabatlari, yaqinligi jihatidan birlashib, qabilani tashkil etgan. Qabila tarkiban bir necha urug‘lar bo‘lingan. Tarixiy manbalarda yozilishicha, o‘zbek xaqining shajarasi 92 qabiladan tashkil topgan. Xudoyberdi Doniyorov o‘zbek urug‘lari 300 dan ortiqligini aniqlagan. Hozirda ana shu etnonoslarning nomlari etnotoponimlar sifatida yashamoqda.

Etnotoponimlar urug‘, qabila, xalq, millat nomlari – etnonimlar asosida yaratilgan joylarning atoqli nomidir. Ular bizning ajdodlarimiz va boshqa turkey elatlar, qabilalar, xalqlarning yashash manzillari haqida xabar beradi. O‘zbek tili toponimik tizimida etnotoponimlar salmoqli o‘rin tutadi.

Etnotoponimlar tilimizdagi eng qadimiy toponimik qatlamlardan biri hisoblanadi. Bunday toponimik birliklar joy nomlarining ma‘lum bir etnik qatlamga mansubligini, aloqadorligini va shu hududga yashaganligini bildiradi.

Etnotoponimlarni kuzatish orqali biror hududda yashagan etnik guruhning o‘tmishda o‘troq yoki ko‘chmanchi hayot kechirganligini bilib olish mumkin. Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, o‘troq va ko‘chmanchi xalqlar joylarga nom berishda farqlanar ekan. Bordiyu, aholi o‘troq bo‘lsa, joyni tabiiy-geografik xususiyatiga qarab nomlanar ekan, aksincha, bordiyu, aholi ko‘chmanchi bo‘lsa, joyni o‘z urug‘ va qabilalarining nomi bilan atashar ekan [9,7].

E.Begmatovning qayd etishicha, tarixiy va madaniy ahamiyatga molik nomlarga birinchi navbatda etnotoponimlarning quyidagi turlari kiradi:

1. O‘zbek xalqining urug‘ va qabilalari nomi bilan atalgan joy nomlari, shuningdek, aholining o‘tmish davrlardagi ko‘chishi (migratsiya) jarayonlarini ifoda qiluvchi nomlar: *Do‘rmon, Qarluqxona, Saroyqishloq, Jaloyir, Xitoysoy, Qipchoqovul*.

2. O‘zbekiston hududida o‘tmishda yashagan va hozirda istiqomat qiluvchi ba’zi elatlar, xalqlar nomidan yasalgan toponimlar: *Arabovul, Arabsoy, Arabxona, Mo‘g‘ultepa, Tojikqishloq, Qozoqovul* kabi [9, 42].

O‘zbekiston Respublikasi turli toponimik areallariga mansub etnotoponimlar H.Hasanov, Z.Do‘simov, T.Nafasov, N.Oxunov, T.Enazarov [1,31-36], etnogidronimlar N.Uluqov tomonidan tahlil qilingan va tavsiflangan [11,192]. Xorazm etnotoponimlarining hosil bo‘lishi, turlari, fonetik, grammatik, tarixiy-etimologik xususiyatlari A.Otajonova tomonidan monografik tadqiq etilgan [12,130]. A.A.Ergashev Andijon viloyati etnotoponimlarining areal-onomastik xususiyatlarini tadqiqi etgan [13,43]. Mazkur dissertatsiyada viloyat toponimiyasiga mansub *Nayman* (Andijon v. And.t. *Nayman* QFY), *Qashqar* (Andijon v. And.t. *Yorboshi* QFY), *Bahrin* (Andijon v. And.t. *Qo‘nji* QFY), *Do‘rmon* (Andijon v. Asaka.t. O‘zbekiston QFY), *Arg‘in* (Andijon v. Asaka.t. O‘zbekiston QFY), *Qipchoq* (Andijon v. Asaka sh.), *Cho‘mbog‘ish* (Andijon v. Asaka.t. O‘zbekiston QFY), *Qorabog‘ish* (Andijon v. Marhamat t. *Qorabog‘ish* QFY), *Urganji* (Andijon v. Izboskan t. *Erkin* QFY), *Puchug‘oy* (Andijon v. Izboskan t. *Namuna* QFY), *Mang‘it* (Andijon v. Xo‘jaobod t. *Xo‘jaobod* QFY), *Yuzlar* (Andijon v. Xo‘jaobod t. *Birlashgan* QFY) kabi etnotoponimlarning tahlili berilgan. Namangan viloyati etnooykonimlarining turlari va lisoniy-tarixiy xususiyatlari Y.Ne‘matov tomonidan o‘rganilgan [14,58-65].

Namangan viloyatida juda qadim zamonlardan beri o‘zbeklar, qirg‘izlar va tojiklar yonma-yon yashab kelishmoqda. Viloyat aholisining milliy tarkibi keyingi 150 yil mobaynida sezilarli ravishda o‘zgaradi va O‘zbekistondagi ko‘p millatli hududlardan biriga aylanadi. Bugungi kunda viloyatda 50 dan ortiq turli millat, xalq va etnik guruh vakillari yashamoqda. Jumladan, hududda *tatar, qoraqalpoq,*

*uyg‘ur, qirg‘iz, qozoq, puchig‘oy, baymoq, qiziloy, olchin, cho‘ngbag‘ish, arbag‘ish, bag‘ish, arg‘in, yalong‘och, qipchoq, o‘lmas, g‘alcha, elaton, qo‘g‘ayo‘lmas, qo‘g‘ay, yashiq, nayman, to‘da, saroy* kabi urug‘ va millat vakillari istiqomat qiladilar. Hududning etnik tarkibi toponimlarda o‘z ifodasini topgan. Etnotoponimlar Namangan viloyati toponomiyasida katta o‘rin tutadi: *Avg‘on* (Namangan sh., Bog‘ mahalla MFY), *Bag‘ish* (Chortoq t., Oraariq MFY), *Chig‘atoy* (Chortoq t., MFY), *Elatan* (Namangan t., MFY), *Qatag‘on* (To‘raqo‘rg‘on t., MFY), *Qayqi* (Uchqo‘rg‘on t., MFY), *Qo‘g‘ay* (Uchqo‘rg‘on t., MFY) kabi.

Namangan viloyati etnotoponimlarini lug‘aviy asosi, ya‘ni qanday etnonim asosida yuzaga kelganligiga ko‘ra dastlab ikki guruhga bo‘lish mumkin:

1. **Mashhur va ma‘lum yirik etnoslar nomi asosida shakllangan toponimlar.** Bunday nomlarning asosini turli xalq va millat nomlari tashkil etadi: *Qozoq* (Yangiqo‘rg‘on t., MFY), *Kenagas* (Pop t., MFY), *Chig‘atoy* (Chortoq t., MFY), *Tojik* (Namangan sh., Bog‘ mahalla MFY), *Qoraqalpoq* (Mingbuloq t., MFY) kabi.

2. **Turkiy urug‘ va qabila nomlari asosida shakllangan etnotoponimlar:** *Qo‘g‘ay*, *Qayqi* (Uchqo‘rg‘on t., MFY), *Uyg‘ur* (Pop t., MFY), *Qatag‘on* (To‘raqo‘rg‘on t., MFY), *Elatan* (Namangan t., MFY) kabi.

Etnonimlarning toponimga o‘tishida hududni ham ahamiyati katta bo‘lgan. Bir tilda gapiruvchi etnoslar alohida entik birlikka uyushishi uchun o‘z hududiga ega bo‘lishi kerak edi, ya‘ni har bir elatning muayyan yashaydigan joyi bo‘lgan. Etnoslarning madaniy va iqtisodiy taraqqiyoti uchun ular istiqomat qilib turgan hududda uzoq vaqtgacha barqarorlik, hukmronlik qilishi kerak bo‘lgan. Etnoslar muqim bir joyda uzoq yashaganliklari sabablar shu hudud ularning etnik birliklari bilan nomlana boshlangan. Namangan viloyati toponimiyasiga xos *Kaltatoy*, *Nayman*, *Saroy*, *Uychi*, *Mirishkor*, *Mitan*, *Kenagas* kabilar ana shunday toponimlar sirasiga mansubdir.

Etnotoponimlar quyidagi jihatlari bilan ilmiy-nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega:

1. Aholi maskanlari: mahalla, shahar va qishloqlar aholisining etnik tarkibi haqida ma’lumot beradi va buni asrlardan asrlarga, avlodlardan avlodlarga yetkazish vazifasin bajaradi.
2. Geografik obyektlar, aholi maskanlarining muayyan etnosga qarashli, tegishli ekanligini ifodalaydi.
3. Muayyan etnoslarning tarqalish areallarini belgilashda asos bo‘ladi.
4. Urug‘, qabila, elat nomlarining tilda saqlanishini ta’minlaydi.
5. O‘zbek xalqining etnik tarkibi, taraqqiyoti, rivoji va takomilini o‘rganish hamda bu xususida xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Shu jihatlarni e’tiborga olgan holda, o‘zbek etnonimlaridan transonimizatsiya asosida hosil qilingan etnotoponimlarning izohli lug‘atini tuzish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, etnotoponimlarni o‘zgartirmasdan saqlash, kelgusi avlodlarga yetkazish lozim va “Joy nomlarining qizil kitobi”ni yaratish, birinchi navbatda, unga etnotoponimlarni kiritish maqsadga muvofiqdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Серебренников Т.А. О методах изучения топонимических названий // Вопросы языкознания, 1959.
2. Никонов В.А. Введение в топонимку. – М.: Наука, 1965.
3. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985.
4. Турдибеков Т.Х. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзлар конверсияси: Филол.фан.ном....дисс. афтореф. – Тошкент, 1996.
5. Суперанская А.В. Структура имени собственного. Фонология и морфология. – М.: Наука, 1969.
6. Ганиев Т.А. Конверсия в татарском языке. – Казань, 1985.
7. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985.
8. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1978.
9. Бегматов Э. Жой номлари – маънавият кўзгуси. –Тошкент: Маънавият, 1998.



10. Хасанов Х. Ценный источник по топонимике Средней Центральной Азии. // Топонимика Востока. – Москва, 1962. – С. 31-36; Ўша муаллиф. Историко-топонимическая схема Средней Азии // Топонимика Востока. – Москва, 1969. – С. 156-161; Караев С. Опыт изучения топонимики Узбекистана: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1969; Ўша муаллиф. Ойконимия Узбекистана: Диссертация на соискание ученой степени доктора географических наук в форме научного доклада. – Ташкент, 1998. – 50 с.; Дусимов З. Топонимы Северного Хорезма: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1970. – 20 с.; Дусимов З. Историко – лингвистический анализ топонимии Хорезма: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. (АН УзССР, Ин-т яз и лит. им. А.С.Пушкина). – Ташкент, 1996. – 52 с.; Нафасов Т. Топонимы Кашкадарьинской области: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1968. – 24 с.; Охунов Н. Топонимия Кокандской группы районов: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1978. – 23 с.; Эназаров Т.Ж. Ўзбекистон топонимлари: луғавий асослари ва этимологик тадқиқи йўллари: Филол. фан. д–ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – 56 б.
11. Улуқов Н. Ўзбек тилди гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008.
12. Отажонова А. Хоразм этнотопонимлари. – Тошкент: Фан, 1997.
13. Эргашев А.А. Андижон вилояти этнотопонимларининг ареал-ономастик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... диссер. – Тошкент, 2012.
14. Неъматов Ю.О. Наманган вилояти ойконимларининг тарихий-лисоний тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа док. ... диссер. – Фарғона, 2018.